



## A NEW MODEL OF HUMAN–TECHNOLOGY–SOCIETY RELATIONS IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

**Muhammadbobur Muminov**

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy,  
Researcher at the National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekiston*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** artificial intelligence, philosophy of technology, digital society, transformation of subjectivity, algorithmic governance, social space, human–technology–society model, digital worldview.

**Received:** 03.02.26

**Accepted:** 04.02.26

**Published:** 05.02.26

**Abstract:** This article provides a socio-philosophical analysis of the qualitative transformation of human–technology–society relations in the context of the rapid development of artificial intelligence technologies. The limitations of the classical linear model “human → technology → society” are substantiated, and a network-interactive model “human ↔ technology ↔ society” is proposed. The study examines the formation of digital social space, the phenomenon of algorithmic governance, and the transformation of collective consciousness. The ontological and social implications of the new model are revealed, including the issues of subjectivity transformation, consciousness sovereignty, freedom, responsibility, and new forms of social control.

## SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA INSON – TEXNIKA – JAMIYAT MUNOSABATLARINING YANGI MODELI

**Muhammadbobur Muminov**

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** sun'iy intellekt, texnika falsafasi, raqamli jamiyat, subyektivlik transformatsiyasi, algoritmik boshqaruv, ijtimoiy makon, inson–texnika–jamiyat modeli, raqamli dunyoqarash.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson – texnika – jamiyat munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotgani ijtimoiy-falsafiy nuqtayi

nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda klassik “inson → texnika → jamiyat” chiziqli modelining cheklanganligi asoslanib, uning o‘rniga “inson ↔ texnika ↔ jamiyat” tarmoqli-interaktiv modeli taklif etiladi. Sun’iy intellekt sharoitida subyektivlikning transformatsiyasi, raqamli ijtimoiy makonning shakllanishi, algoritmik boshqaruv va jamoaviy ong muammolari ochib beriladi. Maqolada yangi modelning ontologik va ijtimoiy oqibatlari asoslanib, ong suvereniteti, erkinlik, mas’uliyat hamda ijtimoiy nazoratning yangi shakllari tahlil qilinadi.

## НОВАЯ МОДЕЛЬ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ «ЧЕЛОВЕК – ТЕХНИКА – ОБЩЕСТВО» В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

**Мухаммадбобур Муминов**

*Доктор философии (PhD) по философским наукам*

*Соискатель Национального университета Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, философия техники, цифровое общество, трансформация субъективности, алгоритмическое управление, социальное пространство, модель человек–техника–общество, цифровое мировоззрение.

**Аннотация:** В статье с социально-философских позиций анализируются трансформации взаимоотношений человека, техники и общества в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Обосновывается ограниченность классической линейной модели «человек → техника → общество» и предлагается сетевая интерактивная модель «человек ↔ техника ↔ общество». Рассматриваются процессы формирования цифрового социального пространства, алгоритмического управления и трансформации коллективного сознания. Раскрываются онтологические и социальные последствия новой модели, анализируются проблемы суверенитета сознания, свободы, ответственности и новых форм социального контроля.

**Kirish.** XXI asrda sun’iy intellekt texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylandi. Sun’iy intellekt nafaqat ishlab chiqarish, balki ta’lim, tibbiyot, xavfsizlik hamda va boshqa kundalik hayotda ham faol ishtirok qo‘llanilmoqda. Natijada texnologiya hozirda inson faoliyatining oddiy quroli sifatida emas,

balki ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bu holat jamiyatning texnik muhit bilan o'zaro munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni davrning o'zi talab qiladi.

Mazkur holatda "inson – texnika" munosabatlari tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Oldingi davrlarda texnika asosan insonning tashqi imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida talqin etilgan bo'lsa, hozirgi kunda sun'iy intellekt ma'lumotlarni mustaqil qayta ishlovchi, qarorlar qabul qilish bilan bo'lgan jarayonlarida ishtirok etuvchi va ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli inson, texnika va jamiyat o'rtasidagi aloqalar murakkablashib, o'zaro ta'sirga asoslangan ko'p tarmoqli tizim ko'rinishiga aylanmoqda.

Texnika insoniyat tarixining ilk bosqichlaridanoq inson faoliyatining ajralmas bir qismi sifatida shakllangan. Dastlabki tosh, yog'och va metall asboblari insonning atrof-muhitga moslashuvi va uni o'zgartirish ehtiyojidan kelib chiqqan. Bu davrda texnika insonning jismoniy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lib, barcha texnologik jarayonlar to'liq inson nazorati ostida amalga oshirilgan. Shu sababli oldingi davrda texnika va inson o'rtasidagi munosabat subyekt vosita modeli asosida shakllanadi, unda inson markaziy faol subyekt hisoblangan.

**Adabiyotlar sharhi.** Shu asnosda, Lewis Mumford texnikaning ilk shakllari inson biologik imkoniyatlarini to'ldiruvchi va uning ijtimoiy faoliyatini mustahkamlovchi omil bo'lganini ta'kidlab, texnikani insonning "kengaytirilgan organizmi" sifatida talqin qiladi [1]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, oldingi davr texnikasi insonning dunyoqarashi va amaliy faoliyatini amalga oshiruvchi tashqi mexanizm bo'lib xizmat qilgan. Bu bosqichda texnika inson subyektivligining tashqi proyeksiyasi bo'lib, u dunyoni anglashning quroli sifatida qaralgan. Hozirgi zamonaviy hayotda texnika va inson munosabatlarida keskin burilish yasadi. Globallashtirish jarayoni inson mehnatini mashinalar yoki texnikalar orqali amalga oshirish imkonini bermoqda, avtomatlashtirish esa murakkab jarayonlarni inson ishtirokisiz boshqarishga yo'naltirdi. Bu bosqichda texnika faqat vosita emas, balki ishlab chiqarish tizimining asosiga aylandi.

Keyingi bosqich – axborotlashtirish davrida texnologiya bilimlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishning asosiy manbasiga aylandi. Klaus Schwabning ta'kidlashicha, postindustrial jamiyatda texnika endilikda iqtisodiy tizim bilan bir qatorda ijtimoiy institutlar, madaniyat va kommunikatsiya shakllarini ham belgilovchi omilga aylangan [2]. Bu bosqichda texnika inson dunyoqarashining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining paydo bo'lishi texnikaning tarixiy rivojlanish davrini tubdan o'zgartirdi. Endilikda texnika nafaqat buyruq va vazifalarni bajaruvchi vosita,

balki ma'lumotlarni mustaqil o'rganib tahlil qiluvchi, yangi va kreativ qarorlar ishlab chiquvchi hamda kelajakni taxmin qiluvchi bashoratchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa texnikaning "vosita" maqomidan chiqib, boshqaruv xususiyatiga ega bo'layotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda sun'iy intellekt tizimlari ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanmoqda. Xususan, M.E.Muminov sun'iy intellektning jamiyat hayotiga kirib borishi natijasida texnologiya ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonining tarkibiy qismiga aylanayotganini ko'rsatadi [3]. Sun'iy intellekt texnika inson subyektivligiga tashqi tayanch emas, balki dunyoqarashni shakllantiruvchi faol muhitga aylanmoqda. Bu esa inson – texnika – jamiyat munosabatlarini "subyekt–vosita" modelidan "o'zaro ta'sir qiluvchi tizim" modeliga o'tishini bildiradi.

Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi inson va texnika o'rtasidagi an'anaviy munosabatlari tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Texnika asosan inson faoliyatining tashqi vositasi sifatida talqin etilgan bo'lsa, sun'iy intellekt davrida u ma'lumotlarni mustaqil tahlil qiluvchi, vaziyatlarni modellashtiruvchi va qarorlar ishlab chiquvchi tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat texnikaning maqomini o'zgartirib, uni ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi omil darajasiga olib chiqmoqda.

Luciano Floridi zamonaviy raqamli muhitni "infosfera" deb atab, sun'iy intellekt tizimlari inson bilish faoliyatining tashqi kengaytmasi emas, balki yangi ontologik muhitni shakllantirayotganini ta'kidlaydi [4]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt inson tafakkurining turli jihatlarini texnologik modellashtirishga urinmoqda. Neyron tarmoqlar, mashinali o'qitish modellarida idrok, tasniflash, tanlash va hatto ijodiy kombinatsiyalar texnik muhitda qayta ishlab chiqilmoqda. Bunday modellashtirish jarayonlari inson ongining faqat natijalarini emas, balki ichki struktural mexanizmlarini ham texnologik muhitga ko'chirishga intilmoqda. Sun'iy intellekt sharoitida subyekt masalasi "inson markaziy ong" markazidan "inson–texnika kognitiv tizimi" markaziga o'tmoqda. Bu esa subyektivlikning individual emas, balki gibrid ontologik shaklga kirayotganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellekt bilish jarayonining tuzilishini tubdan o'zgartirmoqda. Ma'lumotni izlash, tahlil qilish va tizimlashtirish funksiyalarining texnologiyaga topshirilishi inson bilish faoliyatini refleksiv va talqin qiluvchi darajaga ko'chirmoqda. Endilikda inson ko'proq ma'lumot ishlab chiqaruvchi emas, balki natijalarni sharhlovchi subyektga aylanmoqda. Nick Bostrom sun'iy intellektni "kognitiv kuchaytiruvchi muhit" sifatida baholab, bilish jarayonida insonning rolini tubdan qayta belgilashini ko'rsatadi [5]. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar murakkab parametrlarni insondan tezroq va kengroq tahlil qilish imkoniga ega. Natijada qaror qabul qilish jarayoni subyektiv tajribadan ko'ra algoritmik hisoblashlarga tayanmoqda. Bu insonni qaroridan

ko'ra ko'proq qaror legitimatori rolga yaqinlashtirmoqda. Qaror qabul qilishdagi bu siljish mas'uliyatning shaxsiylikdan tizimlilikka ko'chishini anglatadi va subyektivlikning ontologik chegaralarini qayta belgilaydi.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilayotgan matnlar, tasvirlar va musiqiy mahsulotlar ijod tushunchasini qayta talqin qilishni taqozo etmoqda. Endilikda ijod insonning eksklyuziv faoliyati emas, balki inson–texnika kooperatsiyasining mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson ijodi texnologik muhitda yo'q bo'lib ketmaydi, balki ijod darajasiga ko'tarilib, ma'no beruvchi, tanlov qiluvchi va madaniy mahsulot yaratuvchi faoliyatga aylanadi.

Sun'iy intellekt qarorlar qabul qilayotgan sharoitda mas'uliyat masalasi keskin murakkablashadi. Kim javobgar: dasturchimi, foydalanuvchimi yoki tizimmi? Bruno Latour texnologiyani ijtimoiy munosabatlarning passiv obyekti emas, balki ularni qayta taqsimlovchi faktor sifatida talqin qiladi [6]. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlangan davrda mas'uliyat individual axloq doirasidan chiqib, ontologik-ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tarix jihatdan texnika inson buyruqlarini bajaruvchi ijrochi bo'lgan. Avtomatlashtirish davrida u inson faoliyatining hamkoriga aylandi. Raqamli muhitda esa texnika inson mavjud bo'ladigan muhitga aylandi. Sun'iy intellekt davrida esa texnika tobora boshqaruvchi tizim sifatida namoyon bo'lmoqda – u ijtimoiy jarayonlarni modellashtiradi, yo'naltiradi va cheklaydi. Bu evolyutsiya texnikaning ontologik maqomi "vosita"dan "ijtimoiy borliqning faol qatlamiga" aylanganini ko'rsatadi. Endilikda inson jamiyatda texnika orqali emas, balki texnika ichida mavjud bo'la boshlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida jamiyatda sifat jihatidan yangi ijtimoiy makon – raqamli ijtimoiy muhit shakllanmoqda. Bu muhit nafaqat axborot almashinuvi maydoni, balki ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy faoliyat, madaniy tajriba va siyosiy jarayonlar amalga oshadigan asosiy maydonga aylanmoqda. Endilikda shaxsning ijtimoiy mavjudligi jismoniy makon bilan cheklanmay, raqamli shaxs, masofaviy ishtirok va vositachilik orqali shakllanmoqda. Manuel Castells zamonaviy jamiyatni "tarmoqlar jamiyati" sifatida tavsiflab, raqamli texnologiyalar ijtimoiy tuzilmaning asosiy arxitekturasini belgilab berayotganini ta'kidlaydi [7]. Ushbu jarayonda sun'iy intellekt tarmoqli makonning faqat texnik komponenti emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi faol mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt sharoitida raqamli makon jamiyatning qo'shimcha sohasi emas, balki ijtimoiy borliqning ontologik qatlamiga aylanmoqda. Inson endilikda jamiyatda emas, balki jamiyat bilan birga raqamli muhit ichida mavjud bo'lmoqda.

Sun'iy intellektning jamiyatga chuqur integratsiyalashuvi ijtimoiy boshqaruvning yangi shaklini yuzaga keltirmoqda. Algoritmik tizimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash

asosida xulq-atvorni bashorat qiladi, ijtimoiy jarayonlarni modellashtiradi va boshqaruv qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada ijtimoiy tartib inson subyektiv bahosidan ko'ra tobora ko'proq texnologik hisoblashlarga tayana boshlaydi. Shoshana Zuboff algoritmik boshqaruvni "nazorat kapitalizmi"ning markaziy mexanizmi sifatida baholab, raqamli texnologiyalar orqali xulq-atvorni prognoz qilish va yo'naltirish imkoniyati paydo bo'lganini ko'rsatadi [8]. Bu jarayonda sun'iy intellekt jamiyatni faqat tahlil qiluvchi emas, balki ijtimoiy harakatlarni konstruksiyalovchi kuchga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt ta'lim sohasida bilim uzatishning klassik modelini o'zgartirib, individual trajektoriyalar, adaptiv platformalar va raqamli mentorlik tizimlarini shakllantirmoqda. O'qituvchi bilim manbaidan ko'ra ko'proq metodologik yo'naltiruvchi roliga o'tmoqda. Ta'limning sun'iy intellektlashuvi insonning tayyor bilimlarni egallashidan ko'ra, bilim bilan ishlash madaniyatini shakllantirishni asosiy vazifaga aylantiradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari mehnatning mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Ko'plab kasblar avtomatlashtirilmoqda, yangi kasbiy identikliklar paydo bo'lmoqda. Insonning jamiyatdagi iqtisodiy roli jismoniy ijrodan intellektual muvofiqlashtirishga siljimoqda.

Mehnat transformatsiyasi insonni ishlab chiqarish resursidan ko'ra, strategik subyektga aylantiradi, ammo bir vaqtning o'zida ijtimoiy begonalashuvning yangi shakllarini ham yuzaga chiqaradi.

Sun'iy intellekt siyosiy jarayonlarga ham chuqur kirib bormoqda: ma'lumotlar tahlili, prognozlash, jamoatchilik fikrini modellashtirish va kommunikatsiya strategiyalari algoritmik vositalar orqali shakllanmoqda. Siyosiy maydon sun'iy intellekt ta'sirida qarorlar makonidan ko'ra, axborot oqimlarini boshqarish makoniga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt madaniy ishlab chiqarish jarayonlariga kirib kelib, san'at, dizayn, media va adabiyotda yangi gibril shakllarni yuzaga keltirmoqda. Madaniyat texnologik vositalangan ijod makoniga aylanmoqda. Sun'iy intellekt davrida madaniyat insoniy tajribani ifodalashdan tashqari, uni texnologik modellashtirish maydoniga ham aylanmoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar jamoaviy ong shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimlarini saralash, ustuvorlashtirish va tarqatish mexanizmlari algoritmik tizimlarga bog'lanib qolmoqda. Bu esa axborot hokimiyatining yangi shaklini vujudga keltiradi. Michel Foucault hokimiyatni bilim ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilgan [9]. Sun'iy intellekt davrida esa bilim ishlab chiqarish algoritmik muhitga ko'chmoqda, natijada jamoaviy ong texnologik vositalangan konstruksiyaga aylanmoqda. Axborot hokimiyati sun'iy intellekt sharoitida jamiyatning ko'rinmas boshqaruv mexanizmiga aylanib, dunyoqarashni bevosita shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Muhokama va natijalar.** Biroq zamonaviy raqamli va sun'iy intellekt muhitida ushbu model o'zining tushuntirish imkoniyatini yo'qotmoqda. Bruno Latour aktor-tarmoq nazariyasida texnologiyalarni passiv obyekt emas, balki ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi aktor sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, jamiyat faqat insonlar yig'indisi emas, balki inson va no-inson aktorlar (texnologiyalar, tizimlar, platformalar) o'zaro ta'sirining natijasidir [10]. Bu yondashuv chiziqli sababiyatni inkor etib, texnikaning jamiyatni shakllantirishdagi mustaqil rolini asoslab beradi.

Sun'iy intellekt davrida "inson → texnika → jamiyat" formulasi ontologik jihatdan yetarli emas, chunki texnika endilikda jamiyat mahsuli bo'lish bilan birga, uning ichki tashkiliy printsipiga aylanmoqda. Sun'iy intellekt sharoitida inson, texnika va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar chiziqli emas, balki tarmoqli-interaktiv xarakter kasb etmoqda. Bu modelda tomonlar bir-biriga biryozlama ta'sir ko'rsatmaydi, balki doimiy o'zaro ta'sir, aks-ta'sir va qayta dasturlanish jarayonida mavjud bo'ladi. Manuel Castells raqamli davr jamiyatini "oqimlar makoni" va "tarmoqlar mantiqi" asosida ishlovchi tizim sifatida tavsiflab, texnologiya ijtimoiy tuzilmaning tashqi qatlami emas, balki uning ichki arxitekturasini ekanini ko'rsatadi [11]. Sun'iy intellekt bu tarmoqlarga faqat tezlik emas, balki o'rganish va moslashish xususiyatini olib kiradi.

Sun'iy intellektga asoslangan tavsiya tizimlari, filtrlash mexanizmlari va bashorat modellarining keng qo'llanilishi insonning mustaqil qaror qabul qilish maydonini toraytirib bormoqda. Algoritmilar inson xulq-atvorini oldindan taxmin qilish, axborotni tanlab berish va ehtiyojlarni shakllantirish orqali ongning tashqi boshqaruvini kuchaytirmoqda. Sun'iy intellekt davrida ong suverenitetining susayishi insonning erkin tanlov subyekti sifatidagi ontologik maqomiga tahdid solmoqda.

Texnologiyaning jamiyat taraqqiyotini mutlaq belgilovchi kuch sifatida talqin qilinishi texnologik determinizm xavfini yuzaga keltiradi. Bunday yondashuv insoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy omillarning rolini ikkilamchi darajaga tushiradi. Texnologik determinizm insonni tarix yaratuvchi subyektdan texnologik jarayonlarning passiv elementiga aylantirish xavfini tug'diradi.

Raqamli muhitda ijtimoiy aloqalar ko'payayotgandek ko'rinsa-da, real insoniy muloqotning qisqarishi, sun'iy muhit bilan o'zaro munosabatlarning kuchayishi ijtimoiy begonalashuvning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt davridagi begonalashuv iqtisodiy emas, balki ontologik xarakter kasb etmoqda – inson asta-sekin insoniy muloqotdan emas, insoniy tajribadan uzoqlashmoqda.

Sun'iy intellekt insonning bilish salohiyatini kengaytiruvchi kuchli kognitiv muhitni yaratmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, murakkab modellarni qurish va bashorat

qilish imkoniyatlari inson tafakkurining yangi darajalarini ochmoqda. Sun'iy intellekt insonni almashtiruvchi emas, balki uning kognitiv dunyoqarashini kengaytiruvchi omil sifatida qaralishi zarur. Sun'iy intellekt yordamida boshqaruv, tibbiyot, ta'lim va iqtisod sohalarida samaradorlik sezilarli oshmoqda. Raqamli prognozlash, optimallashtirish va resurslarni boshqarish imkoniyatlari jamiyat taraqqiyotini tezlashtirmoqda. Sun'iy intellekt jamiyatni mexanik tizimga aylantirmasligi, balki inson manfaatlariga xizmat qiluvchi oqilona ijtimoiy mexanizm sifatida shakllanishi kerak.

Sun'iy intellekt davrida inson – texnika – jamiyat munosabatlarida yuzaga kelayotgan ontologik, ijtimoiy va axloqiy muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Sun'iy intellekt tizimlarini yaratish va joriy etishda “texnologik samaradorlik” emas, balki inson manfaatlari, qadr-qimmati va ong suvereniteti ustuvor mezon sifatida belgilanadigan konsepsiyani ishlab chiqish.

2. Ta'lim tizimida va ijtimoiy institutlarda raqamli tafakkur, algoritmik savodxonlik va tanqidiy fikrlashga asoslangan yangi dunyoqarash modelini ishlab chiqish. Bunda maktab, oliy ta'lim va harbiy-ta'lim muassasalarida “Sun'iy intellekt falsafasi”, “Algoritmik madaniyat” va “Raqamli ong xavfsizligi” fanlarini joriy etish.

3. Jamiyatda qo'llanilayotgan AI tizimlari uchun ijtimoiy-falsafiy ekspertiza institutini shakllantirish.

4. “Inson ↔ texnika ↔ jamiyat” tarmoqli modelini ta'lim, boshqaruv va ilmiy-tadqiqot tizimlariga konseptual asos sifatida kiritish.

5. O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda milliy qadriyatlar, ma'naviyat va ijtimoiy barqarorlikni hisobga oluvchi falsafiy model ishlab chiqish.

**Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki,** tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida inson-texnika-jamiyat munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotgani ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, texnika endilikda inson faoliyatining tashqi vositasi bo'lishdan chiqib, ijtimoiy borliqning ichki, faol va o'zgaruvchan tarkibiy qismiga aylanmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyalashuvi inson subyektivligi, ijtimoiy institutlar, jamoaviy ong va boshqaruv mexanizmlarining tubdan transformatsiyasiga olib kelmoqda.

Keyingi tadqiqotlar sun'iy intellekt sharoitida shaxs dunyoqarashining transformatsiyasi, raqamli identiklik, algoritmik boshqaruvning axloqiy-me'yoriy chegaralari, ma'naviy xavfsizlik, shuningdek, milliy jamiyatlar kontekstida texnologik modernizatsiyaning ijtimoiy oqibatlarini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, sun'iy intellekt muhitida inson markazlilikini saqlash, erkinlik va mas'uliyat muammolarini qayta asoslash hamda

falsafaning tanqidiy va yo‘naltiruvchi rolini kuchaytirish istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. L.Mumford, *Technics and Civilization*. New York: Harcourt, Brace & Company, 1934. – 32–35-betlar.
2. K.Schwab, *The Fourth Industrial Revolution*. New York: Crown Business, 2017. – 4–7-betlar.
3. M.E.Muminov, “Sun’iy intellekt texnologiyalarining tarixi va rivojlanishi”. Ilmiy maqola. – 68–69-betlar.
4. L.Floridi, *The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality*. Oxford University Press, 2014. – 14–18-betlar.
5. N.Bostrom, *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford University Press, 2014. – 89–92-betlar.
6. B.Latour, *Reassembling the Social: An Introduction to Actor-Network-Theory*. Oxford University Press, 2005. – 72–75-betlar.
7. M.Castells, *The Rise of the Network Society*. 2-edition. Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 407–410-betlar.
8. S.Zuboff, *The Age of Surveillance Capitalism*. New York: PublicAffairs, 2019. – 293–298-betlar.
9. M.Foucault, *Power/Knowledge: Selected Interviews and Other Writings*. New York: Pantheon Books, 1980. – 27–30-betlar.
10. B.Latour, *Reassembling the Social: An Introduction to Actor-Network-Theory*. Oxford: Oxford University Press, 2005. – 63–68-betlar.
11. M.Castells, *The Rise of the Network Society*. 2-edition. Oxford: Blackwell, 2010. – 500–503-betlar.